



DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA KASB-HUNARGA YO‘LLASH ISHLARINI TASHKIL QILISH MAZMUNINI TANLASHNING TASHKILY-PEDAGOGIK MEZONLARI

Xolmatov P.Q.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti.p.f.n.

O‘tayev A.Y.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti v.b. dotsenti, (PhD).

Mirzaxmatov B.B.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: mashg‘ulot, kasb, hunar, qiziqish, bilim, malaka, ko‘nikma, mezon, mehnat, amaliyot, sifat, tafakkur, ijodiy, shakllantirish.

Ключевые слова: занятие, профессия, призвание, интерес, знания, квалификация, умение, критерий, труд, практика, качество, мышление, творчество, формация

Key words: occupation, profession, craft, interest, knowledge, skill, skill, criterion, work, practice, quality, thought, creative.

Yurtimizning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan talim tarbiya olayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog‘liqdir. Respublikamiz ta‘lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilib yoshlarni jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma‘naviy jihatdan etuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishini ta‘minlash, qobiliyat hamda iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida juda zarur ishlar amalga oshirildi. Konstitutsiyamizda fuqarolarimizning sifatli ta‘lim olishiga oid huquqlari mustahkamlab qo‘yilgan. Ana shundan kelib chiqib, o‘tgan yillar davomida ta‘lim tizimini isloh qilishga qaratilgan bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Umuman olganda kasb tanlashda inson salomatligi ma‘lum bir kasb talablariga muvofiq kelish yoki kelmasligini aniqlash – shifokorning maslahati zarurdir. Inson ishga yoki o‘qishga kirayotgan har bir kishi tibbiy ko‘rikdan o‘tadi ammo ko‘pincha shunday bo‘ladiki, inson o‘zining nazarida kasb tanlab bo‘lganidan song bunday tibbiy ko‘rikga boradi. Keyin afsuslanib yoki iztirob chekib yurmaslik uchun o‘z vaqtida vrach bilan maslahatlashib olish muhim ahamiyatga egadir.

Faoliyat turini inson tanasiga organizmi ko`rsatadigan ta`siri bo'yicha kasblarni to'rt guruhga ajratish mumkin.


1. Mehnat sharoiti maishiy kasblarga yaqin bo'lgan kasblar masalan tariqasida soat ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarni aytishimiz mumkin.


2. Oshpazlik kabi ishlab chiqarish omilining mo'tadil yoki notekis ta'sir etishi bo'yicha ishlagan vaqtda organizmga vaqtincha yuqori darajadagi havo harorati, namlik hamda boshqa shu singari omillar ta`siri boladi. Insonning tomir urishining tezlashib ketishiga, ter ajralib chiqishining kuchayishigaolib keladi. Yuqoridagi kasblarni faqat termoregulyasiyasi yaxshi bo'lgan kishilargagina, shuningdek, yurak-tomir tizimida, nafas organlarida kasalligi bo'lmagan kishilargagina tavsiya etiladi.

3. Noqulay ishlab chiqarish omillarining yig'indisi xarakterli bo'lgan kasblarga to'qimachi kasbini bunga misol qilib keltirish mumkin. Yuragi, o'pkasi, eshitish organlari, tayanch harakat apparati kasal bo'lgan (yoki kasallik alomatlariga moyillik sezilgan), ko'zi yaxshi ko'rmaydigan kishilar uchun bu kasb tavsiya etilmaydi.

4. Og'ir va zararli mehnat sharoiti bilan bog'liq bo'lgan kasblar, elektr payvandchi, po'lat quyuvchi va boshqalar ana shunday kasblar qatoriga kiradi.

Maktab texnologiya fani Milliy o'quv dasturiga asosan 1-4, 5-7 va 8-9-sinflarda yo'nalishlar, bo'limlar kesimida har bir mavzu bo'yicha o'quvchilarga soha oid






kasblar oʻrgatiladi. Darsdan tashqari mashgʻulotlarning maqsad va vazifalariga koʻra oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish ishining mazmunini tanlashda biz pedagog olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, shuningdek amalga oshirgan ilmiy izlanish va tajriba-sinov ishlarimiz natijasida umumiy holda 1-shaklda keltirilgan mezonlarni belgilab oldik. Umumiy oʻrta taʼlim muassasalari darsdan tashqari mashgʻulotlarida oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish ishining mazmunini tanlash mezonlari tuzilmasi quyidagilar tashkil etadi:

Taʼlim jarayonida qoʻllaniladigan vositalar taʼlim samaradorligini taʼminlashga xizmat qiladi. Vosita muayyan oʻqitish metodi yoki usullarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur boʻlgan yordamchi oʻquv materiallaridir. Taʼlim vositalari asbob uskunalar, laboratoriya jihozlari, axborot va texnik vositalar (qurilmalar), videoroliklar, robotlar, koʻrsatmali qurollar, ramziy belgilar, darslik, oʻquv qoʻllanmalari, radio, televideniye, kompyuter va hokazolardan iborat boʻladi.

Taʼlim jarayonida oʻqitish vositalaridan foydalanish-dars jarayonida tabiiy yoki tasviriy koʻrgazma materiallar (predmet, sxema, diagramma, surat va boshqalar) laboratoriya yoki demonstratsiya mashgʻulotlarida qoʻllaniladigan asbob-uskunalar, oʻquv qurollari, mikroskop va boshqa apparatlar, shuningdek, mavzuga oid dalillar (sitatalar, taʼrif, qoida, formula va boshqalar)ning ishlatilishi anglanadi.



Individual yondashuv asosidagi ta'lim o'quvchining qiziqishi, ehtiyoji, xohishiga ko'ra muayyan kasb-hunar yuzasidan chuqur ma'lumotlar olishi va kelajakda tanlagan kasbi bo'yicha kasb-hunar kollejlariga o'qishga borishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Amaliy tajriba mashg'ulotlarini tashkil qilish tuzilmasi quyidagicha kprinishda bo'ladi.

Maktab ma'muriyati hamda pedagogik jamoa oldiga har bir o'quvchining fakul'tativlardan birini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash vazifasi qo'yiladi, bu keyinchalik uning uchun majburiy bo'lib qoladi. Amaliy-tajriba mashg'ulotlari maxsus jihozlangan xonalarda va alohida ajaratilgan tajriba maydonida olib borildi.

Bunday ta'lim mashg'ulotlarini tashkil qilishda asosan darsdan tashqari ishlarning amaliy-tajriba mashg'ulotlari va ekskursiyalar shakllaridan foydalanildi va ekskursiyalarning yo'nalishlari va tarkibiy tuzilish uyidagicha:



Darsdan tashqari mashg'ulotlar shakllaridan biri hisoblangan ekskursiyalarni tashkil qilishda biz ularning sinf-dars tizimi, shuningdek, amaliy mashg'ulotlardan tubdan farq qiluvchi quyidagi jihatlariga e'tibor qaratdik:

a) o'tkaziladigan ekskursiyalarning hammasiga o'qituvchi rahbarlik qilsada, u ekskursiya ob'ektlarining barchasi bilan yaxshi tanish bo'lmashligi mumkin, bunday hollarda ekskursiya uyushtirilayotgan korxonaga, muassasa yoki xo'jalikning mas'ul vakili mashg'ulot olib boradi;

b) ekskursiya muddati turlicha bo'lib, ularni tashkil qilishda mintaqaviy, mavsumiy va ekskursiya uyushtiriladigan ob'ekt xususiyatlaridan kelib chiqiladi. Jumladan, qishloq xo'jalik korxonasiga hosilni yig'ishtirib olish davrida, avtokorxonalariga texnik qarovlarni o'tkazish paytida ekskursiya uyushtirilishi eng yuqori unumdorlikka erishish imkonini beradi;

v) o'qituvchi yoki ekskursiya uyushtirilgan ob'ekt vakili bo'lgan ekskursiyaning rahbarlik usuli va o'quvchilarning faoliyati turlicha bo'lishi mumkin.

Ekskursiya davomida bir o'rindan ikkinchi o'ringa ko'chib yuriladi. Shu bois o'quvchilardan intizomga qat'iy rioya qilish talab etiladi. O'qituvchilar ob'ektni kuzatish jarayonida vaqti-vaqti bilan savollar beradilar, zarur ma'lumotlarni yozib boradilar. Ekskursiya yakunida o'qituvchi bugungi kuzatganlarini avval o'zlashtirilgan materiallarga bog'lab suhbat o'tkazadi. Ekskursiya materiallari asosida bayon yoki insho yozdirish mumkin.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Vosita muayyan o'qitish metodi yoki usullarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallaridir. Ta'lim vositalari asbob uskunalar, laboratoriya jihozlari, axborot va texnik vositalar (qurilmalar), ko'rsatmali qurollar, ramziy belgilar, darslik, o'quv qo'llanmalari, radio, televideniye, kompyuter va hokazolardan iborat bo'ladi.

Ta'lim texnologiyasi talablari bo'yicha ta'lim jarayoni «ta'lim oluvchi-ta'lim jarayoni-ta'lim beruvchi» an'anasiga muvofiq olib boriladi. Mazkur an'anaga muvofiq ta'lim beruvchi avvalgidek tayyor bilimlarni ta'lim oluvchiga yetkazib beruvchi shaxs sifatida emas, balki yo'llanma beruvchi, boshqaruvchi, maslahat beruvchi, baholovchi shaxs sifatida faoliyat olib boradi. Ammo ta'lim jarayoni avvalgidek ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchi faoliyatlarining o'zaro aloqadorligi, bog'liqligi hamda «teskari ta'sir» xususiyatini saqlab qoladi. Murakkab vaziyatlarda o'zlashtirilishi jihatdan qiyin bo'lgan nazariy ma'lumotlarni ta'lim beruvchi tomonidan bayon etib berilishi maqsadga muvofiqdir.

Maktabda o'quvchilar kasb tanlashga oid bilimlarning asosiy hajmini 8-9-sinflarida texnologiya fani jarayonida egallaydilar. Kasbga yo'naltirish



ishlari tizimli ravishda, izchil takomillashtirib borilgandagina, o'quvchining kelajakda mukammal kasb egasi bo'lishiga erishiladi.

O'quvchilar kelajakda tanlaydigan kasblariga to'g'ri yo'l topishlariga mukammal asos sifatida xizmat qiladi. O'quvchilar o'zining xarakteri, bilimi, qobiliyati hamda kasb talablari bo'yicha o'z ustida ishlashlari hamda izlanishiga qo'llanmadagi topshiriq hamda mantiqiy savodxonlik mashqlari, kasb turi hamda tiplari bo'yicha berilgan mashqlarni bajarishlari tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.// www.ZiyoNet.uz
2. Xolmatov P. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish. Monografiya. Fan. 2016
3. Xolmatov P.Q., Eshmurodov O.E, Pardayev B.A. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish metodikasi (metodik qo'llanma) Jizzax. 2021 112 b.
4. Шодиев Н.Ш. Внеклассная и внешкольная работа профориентации учащихся. – Т.: Фан. 1988. – 112 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirishga oid mulohazalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

Вданной статье рассматривается вопрос совершенствования профессиональной ориентации учащихся общеобразовательных школ

SUMMARY

This article discusses the issue of improving the professional orientation of students in secondary schools